

Boshlang'ich Sinf Ona Tili Darslari Jarayonida O'quvchilar Tafakkurini Shakllantirishda Didaktik O'yinlarning Ahamiyati

Berdiev Lobar Norqobulovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslari jarayonida o'quvchilar tafakkurini shakllantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalaniladigan didaktik o'yinlar va ularning qo'llash shartlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ta'lim jarayoni, ona tili darslari, didaktik o'yinlar, mustaqil fikrlash, o'quvchilar tafakkuri.

Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasini sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi deb qaramay, unga ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir. O'yinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga ko'ra sinflarga ajratiladi. boshlang'ich sinf ona tili darslarida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar va ularning mustaqil fikrlash bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlataladigan har bir material bilan ishslash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilish lari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi

Rolli o'yinlar -dars mavzusini ochadigan va unga mos ma'lum hayotiy vaziyatni sinfda sahnalaشتirish.

Bosqichlari:

- vaziyat bilan tanishtirish. mos rollarni bo'lib berish. maqsad va vazifalarni tushuntirish; o'yn davomida o'quvchilarni xatti-harakatlarini kuzatib boish;
- bu xatti-harakatlar orqali bilim olishga, ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat yaratish;
- o'yn natijalarini tahlil qilish;
- ularni hayotiy hodisalar bilan taqqoslash;
- xulosalash.

Ta'lim jarayonida didaktik o'ynli texnologiyalar didaktik o'ynli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yn faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yn faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'ynli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yn faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yn faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yn davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

¹ Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasи katta o'qituvchisi



- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiylar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashq(harakatli) o'yinlar. Didaktik o'yinlar uchun o'yin g'oyasi va o'yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar mantiqiy fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda didaktik o'yinlaridan keng foydalaniadi.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar qoidalari o'yinlar jumlasiga kiradi. Bunday o'yinlar asosini bilishning u yoki bu mazmunini, o'yinning borishi belgilaydigan harakatlarni bajarishga qaratadigan aqliy va irodaviy urinishni tashkil etadi. Didaktik o'yinlarda asosiy fikrlash jarayonlarni –tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish takomillashadi.

O'yin jarayonida o'quvchilarning ish faoliyati kuchayadi, ixtiyorli diqqati, xotirasi takomillashadi. O'yinda bolalar o'zlarini sezmagani holda juda ko'p harakatlarni bajaradilar, masalalarni yechadilar, birgalikda jamoa bo'lib ishlaydilar. O'z fikrlarini mustaqil bayon etadilar, do'stlik, o'rtoqlik, bir-birini hurmat qilish hissi uyg'onadi.

Boshqotirma o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko'rinishda boshqotirmalar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar.

Dastlab boshqotirmalar o'qituvchi boschchiligidagi hal etiladi. O'quvchilarda boshqotirmalarni hal etish ko'nikmalari paydo bo'lgandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil hal qiladilar.

"Boshqotirma" o'yini o'quvchilar dumyoqarashini o'stirish bilan birgalikda ularga so'zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi. Boshlang'ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi mumkin².

1- boshqotirma: Rasmlarning nomlarini qo'ying va mavzuga oid kelishik nomini o'qing:



1.



2.



3.



4.




5.

1			
2			
3			
4			
5			

² T. G'afforova Boshlang'ich ta'limda zamonaliv texnologiyalar. T. Nasaf. 2007.



2-boshqotirma. Rasmlarning nomlarini qo'ying va mavzuga oid so'zni o'qing:



“So’zdan marjon tizing” didaktik o’yini

“**So’zdan marjon tizing**” didaktik o’yinida o’qituvchi o’quvchilarga so’zlarning aralash to’plamini tavsiya etadi. Uyadosh so’zlarni alohida, ya’ni marjon tizgandek yozishni aytadi. O’quvchilar yozishadi va navbat bilan o’qib berishadi. Qaysi o’quvchi tez harakat qilib, marjonnini xatosiz chizib chiqsa, o’yin g’olib bo’ladi. Ushbu didaktik o’yinni ona tili darslarida quyidagicha o’tkazishimiz mumkin.

“So’z turkumlari” mavzusini o’rganishga oid:

1. Kimlar? so’rog’iga javob bo’ladigan so’zlar: o’qituvchilar, shifokorlar, o’quvchilar, buvilar, mahalladoshlar, qo’shnilar.
2. Ot so’z turkumining savollari: Kim? Nima? Kimlar? Nimalar?
3. Son so’z turkumiga oid so’zlar: beshinchi, o’nta, uchta, yigirma, o’n uchinchi, to’qsonta, sakkizinchchi.
4. Nima qilmoqda? so’rig’iga javob bo’ladigan fe’llar: kitob o’qimoqda, yozmoqda, bormoqda, gapirmoqda, kelmoqda, aytmoqda.
5. Qanday so’rog’iga javob bo’ladigan so’zlar: chiroyli, yashil, qizil, qiziq, rasmlli, ko’k, shirin, nordon, achchiq, kichik.
6. Nima qildi? so’rig’iga javob bo’ladigan fe’llar: ishladi, kuldi, bordi, chizdi, pishirdi, tepdi, haydadi, yotdi, yopdi.
7. Atoqli otlar: Orol dengizi, Janubiy O’zbekiston, Alisher Navoiy ko’chasi, Januby-G’arbiy Osiyo.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o’qituvchi tomonidan didaktik o’yinlar qo’llanilar ekan, u quyidagi shartlarga amal qilmog’i lozim:

- har bir sinfning o’quv-imkoniyatini bilishi;

- o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;
- o'rganilayotgan hodisaning maqsadini aniqlay olishi;
- qo'llanilgan didaktik o'yin aniq maqsadni ifodalay berishi;
- didaktik o'yin orqali o'quvchilar ma'lum bir yangilini o'zlashtirib olishlari zarur.

Ona tili darslarida o'tkaziladigan didaktik o'ylarning imkoniyatlari nihoyatda keng hisoblanadi. O'qinlar o'quvchilarni faollikka, tez va aniq fikrlashga, topqirlilikka o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. Toshkent - «O'zbekiston» - 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 2019 -yil 29-apreldagi PF-572-son Farmoni.
3. Muslimov N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. 2015. 73-bet.
4. Muslimov N. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent. 2015. 158-bet.
5. Pedagogika: ensiklopediya. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. 277-bet.
6. T. G'afforova Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. T. Nasaf. 2007.

